BG Pulse Journal USA
ISSN:1947-2536 http://www.bgpulseusa.com/index.php/bg

DUNYONI HAYRATGA SOLGAN O‘ZBEK SPORTCHI QIZLARI

Toshtemurova Saodat Ilhombek qizi
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya
va sport universiteti Jangavor Yakkakurash
Sport turlari nazariyasi va uslubiyati
Kafidrasi KV 51-24 guruh talabasi
toshtemirovasaodat701@gmail.com
Tel:+998 93 489 03 0693 547 16 03
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.21840669

Anotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston ayol sportchilarining sport rivojiga qo‘shgan hissasi, ularning xalqaro maydondagi yutuqlari hamda yosh avlodni sportga jalb etishdagi o‘rni ilmiy tahlil qilinadi. Mustaqillik yillarida davlat tomonidan sportni, xususan, xotin-qizlar sportini qo‘llab-quvvatlash borasida qabul qilingan qaror va farmonlar natijasida ayol sportchilarning ommaviylashuvi, sport infratuzilmasi hamda zamonaviy tayyorgarlik tizimining shakllanishi yoritiladi. Maqolada boks, yengil atletika, dzyudo, gimnastika, taekvondo, karate va boshqa sport turlarida faoliyat yuritayotgan sportchi qizlarning Olimpiya o‘yinlari, jahon va Osiyo chempionatlaridagi natijalari tahlil qilinib, ularning g‘alabalari O‘zbekistonning xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qilishi ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, erishilgan yutuqlarni yanada kuchaytirish bo‘yicha hududlarda infratuzilmani kengaytirish, iqtidorli qizlarni erta aniqlash va ilmiy asoslangan tayyorgarlikni takomillashtirish zarurligi muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston sporti, ayol sportchilar, xotin-qizlar sporti, sportda gender tenglik, xalqaro musobaqalar, Olimpiya o‘yinlari, jahon chempionatlari, Osiyo o‘yinlari, sport infratuzilmasi, zamonaviy sport tayyorgarligi, murabbiylar va kadrlar tayyorlash

Annotation: Hhis article analyzes the contribution of female athletes of competitions, and their role in encouraging the younger generation to take up sports. It explains that during the years of independence, government decisions and decrees aimed at supporting sports—especially women’s sports—helped increase the number of female athletes, improve sports infrastructure, and build a modern system of training. The article also reviews the results of girls competing in boxing, athletics, judo, gymnastics, taekwondo, karate, and other sports at the Olympic Games, World Championships, and Asian Championships. Their victories are shown to strengthen Uzbekistan’s international reputation. Finally, the article discusses the need to expand infrastructure in regions, identify talented girls early, and improve science-based training in order to achieve even greater results.

Аннотация. В данной статье анализируется вклад женщин-спортсменок Узбекистана в развитие спорта, их достижения на международных соревнованиях и роль в привлечении подрастающего поколения к занятиям спортом. Показано, что в годы независимости государственные решения и указы, направленные на поддержку спорта, особенно женского спорта, помогли увеличить количество спортсменок, улучшить спортивную инфраструктуру и сформировать современную систему подготовки. Также в статье рассматриваются результаты девушек, выступающих в боксе, лёгкой атлетике, дзюдо, гимнастике, тхэквондо,

каратэ и других видах спорта, на Олимпийских играх, чемпионатах мира и Азии. Отмечается, что их победы укрепляют международный авторитет Узбекистана. В заключение обсуждается необходимость расширения инфраструктуры в регионах, раннего выявления талантливых девушек и совершенствования научно-обоснованной подготовки для достижения ещё более высоких результатов.

Dolzarbligi Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq sport mamlakatimizning ustuvor yo‘nalishlaridan biri deb belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan sport rivoji uchun chiqarilgan ko‘plab qarorlar va farmonlar bugungi kunda xalqaro maydonlarda g‘alaba qozonayotgan sportchilarimizning muvaffaqiyatlarida katta rol o‘ynab kelmoqda. Ayniqsa, o‘zbek sportchi qizlarining erishayotgan yutuqlari nafaqat mamlakatimiz, balki butun dunyo e’tirofiga sazovor bo‘lmoqda. Qayd etish joizki, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan 2017-yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori sportning barcha sohalariga keng yo‘l ochib berdi. Ushbu qaror asosida qizlarning sportga jalb qilinishiga alohida e’tibor qaratildi. Shuningdek, 2020-yil 24-yanvarda qabul qilingan Sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va jismoniy faollikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon mamlakatda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirishga yangi turtki berdi. So‘nggi yillarda o‘zbek sportchi qizlari dunyo arenalarida ulkan yutuqlarga erishib, yurtimiz bayrog‘ini yuksak marralarda hilpiratmoqda. Xususan, boks, yengil atletika, dzyudo, gimnastika kabi sport turlarida o‘zining jasurligi va mahorati bilan ajralib turgan qizlar xalqaro turnirlarda O‘zbekiston sha’nini munosib himoya qilib kelmoqda. Umumjahon sport kun tartibida, Tokio-2020 Olimpiya o‘yinlari va 2023-yilning Osiyo o‘yinlarida o‘zbek sportchi qizlarining jasorati tarixiy g‘alabalarga boy bo‘ldi. Davlatimizning sport rivojiga qaratilgan doimiy e’tibori tufayli, bugungi kunda sportchi qizlarimiz Irina Viner, Oksana Chusovitina, Gulbadan Abdug‘ofurova kabi jahon miqyosidagi yetakchi mutaxassislar va sportchilar safini to‘ldirib kelmoqda. Bu yo‘nalishdagi yana bir muhim qadam – mamlakatimizda yangi sport inshootlari barpo etilishi va zamonaviy trening usullarining joriy etilishi bo‘ldi.

Umuman olganda, o‘zbek sportchi qizlarining dunyo sport olamidagi marralarni zabt etayotgani ularning mashaqqatli mehnati va davlatimiz tomonidan yaratilgan imkoniyatlarning natijasidir. Ushbu qahramonlarimizning yutuqlari jamiyatda qizlarning sportga bo‘lgan qiziqishini oshirish bilan birga, mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro‘yini ham yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi O‘zbekiston sporti taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan sportchi qizlarning xalqaro maydondagi yutuqlari, ularning mamlakatimiz sporti rivojiga qo‘shayotgan hissasi hamda yosh avlodni sportga jalb etishdagi o‘rnini ilmiy tahlil qilishdan iborat. shuningdek, o‘zbek sportchi qizlarining olimpiya o‘yinlari, jahon va osiyo chempionatlaridagi muvaffaqiyatlarini yoritish, ularning mehnati, matonati va fidoyiligi orqali o‘zbekistonning xalqaro nufuzini oshirishdagi ahamiyatini ochib berish maqsad qilib qo‘yilgan.

Tadqiqotning vazifalari

1. O‘zbekiston sportida ayol sportchilarning tutgan o‘rni va ahamiyatini tahlil qilish.
2. O‘zbek sportchi qizlarining xalqaro musobaqalarda erishgan yutuqlarini o‘rganish.
3. Olimpiya o‘yinlari, jahon va Osiyo chempionatlarida muvaffaqiyat qozongan sportchi qizlarning faoliyatini tahlil qilish.
4. Sportchi qizlarning muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash.

5. Xotin-qizlar sportini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va yaratilayotgan shart-sharoitlarni baholash.


6. Sportchi qizlarning yoshlar tarbiyasi, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va vatanparvarlik ruhini yuksaltirishdagi o‘rnini yoritish.

7. O‘zbek sportchi qizlarining kelgusidagi rivojlanish istiqbollari hamda ayollar sportini yanada takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

O‘zbekiston sporti tarixida ayol sportchilarning o‘rni beqiyosdir. Mustaqillik yillarida o‘zbek sportchi qizlari xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishib, mamlakatimiz bayrog‘ini dunyo arenalarida baland ko‘tardilar. Ularning mehnati, matonati va g‘alabalari nafaqat sport sohasining rivojlanishiga, balki yosh avlodni sog‘lom turmush tarziga undashga ham katta hissa qo‘shmoqda.

Ayniqsa, boks, dzyudo, taekvondo, karate, gimnastika va og‘ir atletika kabi sport turlarida o‘zbek qizlari katta muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Ular Osiyo chempionatlari, Jahon chempionatlari va Olimpiya o‘yinlarida faxrli o‘rinlarni egallab, O‘zbekistonning sport salohiyatini namoyish etmoqda.

Oksana Chusovitina nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo sport gimnastikasi tarixining eng buyuk sportchilaridan biridir. U 1975-yil 19-iyunda Buxoro shahrida tug‘ilgan. Faoliyati davomida 8 ta Olimpiya o‘yinlarida qatnashib, bu yo‘nalishda tarixiy rekord o‘rnatdi. 1992-yil Barselona Olimpiadasida oltin, 2008-yil Pekin Olimpiadasida esa kumush medalni qo‘lga kiritdi. Shuningdek, u uch karra jahon chempioni, Osiyo o‘yinlari va Osiyo chempionati g‘olibi hisoblanadi. Uning sportga sadoqati, matonati va uzoq yillik faoliyati tufayli u Ginnes rekordlari kitobiga kiritilgan hamda Xalqaro Gimnastika shon-sharaf zalidan joy olgan. Oksana Chusovitina bugungi kunda ham yosh sportchilar uchun mardlik, iroda va fidoyilik timsoli bo'lib qolmoqda.






Diyora Keldiyorova 2015-yilda o‘smirlar o‘rtasida jahon chempioni bo‘ldi, 2019, 2022 va 2023-yillarda Osiyo chempionatlarida oltin medallarni qo‘lga kiritdi. 2023 va 2024-yillarda jahon chempionatining kumush medali sovrindori bo‘ldi. Uning eng katta yutug‘i 2024-yilda Parij Olimpiadasida qo‘lga kiritgan oltin medalidir. Bu g‘alaba bilan Diyora Keldiyorova mustaqil O‘zbekiston tarixidagi ilk ayol Olimpiya chempioni va O‘zbekiston dzyudosi tarixidagi ilk Olimpiya chempioniga aylandi. Uning jasorati, qat’iyati va yuksak mahorati butun dunyoda O‘zbekiston sportining nufuzini yanada oshirdi.

O‘zbek ayollar sportida dzyudo yo‘nalishida ham katta yutuqlarga erishilmoqda. Diyora Keldiyorova xalqaromaydondagi muvaffaqiyatlari orqali O‘zbekiston sportining yangi avlod vakillaridan biri sifatida tanildi. Uning g‘alabalari yosh sportchilar uchun katta motivatsiya bo‘lib xizmat qilmoqda.



Navbahor Hamidova 2023-yilda Hindistonda bo'lib o'tgan jahon chempionatida bronza medal sovrindori bo'ldi. 2025-yilda Serbiyaning Nish shahrida o'tgan jahon chempionatida kumush medalni qo'lga kiritib, jahon chempionati finaliga chiqqan ilk o'zbekistonlik bokschi qiz sifatida tarixga kirdi. Shu yilning o'zida Qozog'istonning Astana shahrida o'tgan World Boxing World Cup musobaqasida Olimpiya chempioni Busenaz Sürmenelini mag'lub etib, O'zbekiston ayollar boksi tarixida ushbu musobaqa oltin medalini qo'lga kiritgan birinchi sportchi bo'ldi. Uning matonati va yutuqlari yosh avlod uchun munosib ibratdir.


Gulshan Alimardonivaning eng katta yutug'i 2025-yilda Misrning Qohira shahrida o'tkazilgan jahon chempionatida oltin medalni qo'lga kiritgani bo'ldi. Bu g'alaba bilan Gulshan Alimardonova O‘zbekiston tarixida karate bo'yicha jahon chempioni bo'lgan ilk ayol sportchi sifatida tarixga kirdi. Uning muvaffaqiyati o'zbek qizlarining xalqaro sport maydonidagi salohiyatini yana bir bor namoyon etdi.Gulshan Alimardonova ham O’zbekistonning bayrog’ini ko’klarga ko’tardi va Oltin medalni qo’lga kiritdi.Prezidentimiz tomonidan maxsus sovg’alar bilan taqdirlandi va mamlakatimizda karatechi qizlarga bo’lgan imkoniyatlar yana ortib bormoqda.



Lina Cheryazova O‘zbekiston sporti tarixida o‘chmas iz qoldirgan afsonaviy sportchilardan biridir. U 1994-yilda Norvegiyaning Lillehammer shahrida o‘tkazilgan XVII Qishki Olimpiya o‘yinlarida fristayl chang‘isining akrobatika yo‘nalishida oltin medalni qo‘lga kiritib, mustaqil O‘zbekiston tarixidagi ilk Olimpiya chempioniga aylandi. Bundan tashqari, u 1993-yilda jahon chempioni bo‘lib, ketma-ket ikki mavsum Jahon kubogi g‘olibligini qo‘lga kiritgan. Uning jasorati, matonati va yuksak mahorati bugungi yosh sportchilar uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi.



Svetlana Osipova 2018-yilda Jakarta shahrida o'tkazilgan Osiyo o'yinlarida bronza medalni qo'lga kiritdi. 2019-yilda Xitoyning Uxan shahrida bo'lib o'tgan Harbiylar o'rtasidagi Jahon o'yinlarida oltin medalni qo'lga kiritdi. Uning eng katta yutug'i 2022-yilda Meksikaning Gvadalaxara shahrida o'tkazilgan Jahon chempionatida oltin medalni qo'lga kiritib, O‘zbekiston tarixidagi ilk ayol taekvondo bo'yicha jahon chempioniga aylanganidir. 2024-yilda esa Parij Olimpiadasida kumush medalni qo'lga kiritib, O‘zbekiston sporti tarixiga yana bir yorqin sahifa yozdi. Matonati, mehnatsevarligi va yuksak mahorati bilan Svetlana Osipova bugungi kunda yosh sportchilar uchun chinakam ibrat namunasi hisoblanadi



O‘zbekiston ayol sportchilarining muvaffaqiyatlari ortida zamonaviy sport infratuzilmasi, murabbiylar mehnati, sportga berilayotgan e’tibor hamda sportchilarning shaxsiy intilishi mujassamdir. Ularning faoliyati nafaqat medallar bilan, balki jamiyatda sog‘lom turmush tarzi va faol hayot tarzini targ‘ib qilishi bilan ham ahamiyatlidir.Natijalar va muhokama

Natijalar va muhokama. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda O‘zbekiston ayol sportchilarining xalqaro musobaqalardagi natijalari sezilarli darajada yaxshilandi. Olimpiya o‘yinlari, jahon va Osiyo chempionatlarida qo‘lga kiritilgan medallar sonining ortishi mamlakatda sport tizimi izchil rivojlanayotganini ko'rsatadi. Bu yutuqlar davlat tomonidan sport infratuzilmasini rivojlantirish, zamonaviy sport majmualarini barpo etish, malakali murabbiylar tayyorlash hamda xotin-qizlarni sportga keng jalb etish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasidir.

Tahlil qilingan sportchilar orasida Diyora Keldiyorovaning 2024-yil Parij Olimpiadasida qo‘lga kiritgan oltin medali alohida o‘rin tutadi. Ushbu tarixiy g‘alaba nafaqat O‘zbekiston dzyudosi, balki mamlakat ayollar sporti rivojida yangi bosqichni boshlab berdi. Shuningdek, Oksana Chusovitinaning qariyb qirq yil davom etgan sport faoliyati, Lina Cheryazovaning Qishki Olimpiya o‘yinlaridagi oltin medali, Svetlana Osipovaning taekvondo bo‘yicha jahon chempionligi, Navbahor Hamidova va Gulshan Alimardanovaning xalqaro musobaqalardagi muvaffaqiyatlari o‘zbek sport maktabining yuqori salohiyatini namoyon etadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda o'zbek qizlari faqat bitta sport turi bilan cheklanib qolmay, dzyudo, boks, karate, taekvondo, gimnastika, qilichbozlik, kurash va boshqa yo‘nalishlarda ham dunyoning eng kuchli sportchilari bilan muvaffaqiyatli raqobatlasha olmoqda. Bu esa O‘zbekistonda sportni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘ri yo‘nalishda olib borilayotganidan dalolat beradi.

Muhokama natijasida yana bir muhim jihat aniqlandi. Ayol sportchilarning xalqaro maydondagi muvaffaqiyatlari jamiyatda xotin-qizlarning o‘rni va nufuzini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ularning g‘alabalari yosh qizlarni sport bilan shug‘ullanishga

ruhlantiradi, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiladi va gender tengligini amalda mustahkamlashga hissa qo‘shadi.
Shu bilan birga, erishilgan yutuqlarni yanada rivojlantirish uchun hududlarda sport infratuzilmasini kengaytirish, iqtidorli qizlarni erta aniqlash, xalqaro tajribaga ega murabbiylar sonini oshirish va ilmiy asoslangan sport tayyorgarligini yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu chora-tadbirlar kelgusida O‘zbekiston ayol sportchilarining xalqaro musobaqalardagi muvaffaqiyatlarini yanada ko'paytirishga xizmat qiladi.
Umuman olganda, tadqiqot natijalari O‘zbekiston ayol sportchilari nafaqat mamlakat, balki butun Markaziy Osiyo va turkiy dunyo sportining rivojlanishida muhim o‘rin tutayotganini ko'rsatadi. Ularning yutuqlari O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini oshirib, mamlakatning sport sohasidagi salohiyatini dunyoga namoyish etmoqda. Mazkur muvaffaqiyatlar kelajak avlod uchun ilhom manbai bo'lib, yangi chempionlarning yetishib chiqishiga mustahkam zamin yaratadi.

Xulosa. O‘zbekiston sporti so‘nggi yillarda dunyo miqyosida jadal rivojlanayotgan sohalardan biriga aylandi. Ayniqsa, ayol sportchilarning xalqaro musobaqalarda erishayotgan yutuqlari mamlakatimiz sport tarixida yangi sahifalarni ochmoqda. Bir vaqtlar xalqaro arenalarda ayol sportchilarimiz soni kam bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda ular Olimpiya o‘yinlari, jahon va Osiyo chempionatlarida O‘zbekiston bayrog‘ini yuksaklarga ko'tarib, Vatanimiz sha’nini munosib himoya qilmoqda. Bu yutuqlar davlat tomonidan sportni rivojlantirish, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va iste’dodli yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratish borasida olib borilayotgan izchil siyosatning amaliy natijasidir.
Diyora Keldiyorova, Oksana Chusovitina, Lina Cheryazova, Svetlana Osipova, Navbahor Hamidova, Gulshan Alimardonova va boshqa ko'plab sportchi qizlar o'zining mehnati, sabr-toqati va matonati bilan millionlab yoshlar uchun chinakam ibrat maktabiga aylandi. Ularning har bir g‘alabasi nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat, balki butun O‘zbekiston xalqining g‘ururi va quvonchidir. Bu sportchilar dunyoga o'zbek qizlarining jasorati, bilim va salohiyati hech kimdan kam emasligini amalda namoy ish etdilar.Bugungi O‘zbekiston ayollari sportning dzyudo, boks, taekvondo, karate, gimnastika, qilichbozlik, kurash va boshqa ko'plab yo‘nalishlarida eng kuchli davlatlar sportchilari bilan tengma-teng raqobatlashmoqda. Ularning qo‘lga kiritayotgan medallari yurtimizning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini yanada mustahkamlamoqda. Sport bugungi kunda nafaqat g‘alaba, balki tinchlik, do‘stlik, sog‘lom turmush tarzi va millatlar o‘rtasidagi hamkorlik ramziga aylangan. Turkiya va O‘zbekiston qadimiy tarix, mushtarak madaniyat va qardoshlik rishtalari bilan chambarchas bog‘langan davlatlardir. Shu bois o‘zbek sportchi qizlarining yutuqlari nafaqat O‘zbekiston, balki butun turkiy dunyo uchun ham faxr va ilhom manbaidir. Ularning muvaffaqiyatlari sport orqali xalqlarni yanada yaqinlashtirish, o‘zaro hurmat va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Kelajakda ham O‘zbekistonning iste’dodli qizlari xalqaro sport maydonlarida yangi marralarni zabt etishiga ishonamiz. Ularning har bir g‘alabasi O‘zbekiston bayrog‘ining dunyo arenalarida yanada baland hilpirashiga, davlatimiz nufuzining oshishiga va yosh avlodning sportga bo‘lgan qiziqishi kuchayishiga xizmat qiladi. O‘zbek ayoli bugun nafaqat oilaning tayanchi, balki xalqaro sport maydonlarida Vatan sharafini himoya qilayotgan kuchli, jasoratli va fidoyi sportchidir. Aynan shunday qizlar tufayli O‘zbekiston dunyo sport xaritasida tobora mustahkam o‘rin egallab bormoqda va bu taraqqiyot kelajak avlodlar uchun ham ilhom manbai bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi. "Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida"gi Qonun. Toshkent, 2015 (yangi tahriri – 2024).
2. O‘zbekiston Respublikasi. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida"gi Qonun. O‘RQ-562, 2019.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, 2022.
4. O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi. Rasmiy sayt: https://olympic.uz
5. O‘zbekiston Sport vazirligi. Rasmiy sayt: https://sport.gov.uz
6. World Judo Tour. Rasmiy sayt: https://www.ijf.org
7. World Taekwondo. Rasmiy sayt: https://www.worldtaekwondo.org
8. International Gymnastics Federation (FIG). Rasmiy sayt: https://www.gymnastics.sport
9. International Boxing Association (IBA). Rasmiy sayt: https://www.iba.sport
10. World Karate Federation (WKF). Rasmiy sayt: https://www.wkf.net
11. International Olympic Committee (IOC). Rasmiy sayt: https://olympics.com
12. Olympedia. Sportchilar haqidagi ma'lumotlar bazasi: https://www.olympedia.org
13. olympic.uz